

Nuriddin Olimjonovich Kirgizov

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING NUTQIY VA LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Annotasiya. Maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyasining shakllantirishning maqsad va vazifalari foydalaniladigan texnik vositalar, metodlar haqida fikr yuritiladi

Kalit so'zlar: Maktab, boshlang'ich sinflar, darslarda texnim vositalardan unumli foydalanish, o'qituvchi uslubi, ko'rgazmalar, tarqatmalar, didaktik materiallar.

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ РЕЧЕВОЙ И ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В статье рассматриваются технические средства и методы, используемые для повышения речевой и языковой компетентности учащихся младших классов.

Ключевые слова: Школа, начальные классы, эффективное использование технологических средств на уроках, стиль учителя, выставки, раздаточные материалы, дидактические материалы.

WAYS TO IMPROVE THE SPEECH AND LINGUISTIC COMPETENCE OF STUDENTS IN ELEMENTARY GRADES

Annotation. The article discusses the technical tools and methods used to improve the speech and linguistic competence of students in elementary grades.

Key words: School, primary classes, efficient use of technological tools in lessons, teacher's style, exhibitions, handouts, didactic materials.

Mamlakatimizda asosiy e'tiborni inson kapitali bo'lgan sifatli ta'limga qaratish, zamonaviy ta'lim-tarbiya berish orqali o'quvchilarda erkin va kreativ fikrlash, jamoada ishlay olish hamda muloqot qilish ko'nikmalari, hayot uchun zarur bolgan tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy o'tgan asrning boshidayoq "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur" degan haqqoniy fikrlar bilan Turkiston ahlining ongu shukurini uyg'otishga da'vat etgani bejiz emas albatta. Chindan ham hozirgi vaqtda dunyoviy ilm-fan va texnologiyalarni chuqur o'zlashtirmasak, faqat tariximiz, olis ajdodlarimizning kashfiyotlari bilan maqtanib ularga mahliyo bolib yashaydigan bo'lsak ana shu noyob merosni asrab avaylab yanada boyitib, unga o'z hissamizni qo'shmasak, zamonga hamqadam bo'lib yurmasak, bizning jahon maydonida munosib o'rin egallashimiz qiyin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF 60-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni va 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida hamda ushbu faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti

74 muayyan darjadaxizmat qiladi. Bu esa ularning yosh avlod ta'lim-tarbiyasida, ayniqsa, mustaqil fikrlash malaklarini shakllanishida o'z ahamiyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, yurtimizda o'zbek tilining har tomonlama taraqqiy topishi va adabiy til sifatida maydonga chiqishida qadimiy turkiy til hissa qo'shganini alohida ta'kidlash tabiiydir. Bu borada Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoiy, Alisher Navoiy kabi ilmu fan va adabiyot namoyandalarining xizmati va qoldirgan merosi muhim o'rin egallaganini qayd etish joiz. Qolaversa, Vatanimiz kelajagini buyuk davlat darajasiga ko'taradigan ijodkorlar shaxsini yaratishda boshlang'ich ta'limning poydevor rolini o'ynaydi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish darslarida amalga oshiriladi.

Shuni e'tiborga olgan holda "Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar nutqiy kompetensiyasini o'stirishda turli xildagi topshiriqlar tizimi, texnik vositalar, didaktik materiallar hamda tarqatma materiallari asosida tashkil qilish hozirgi kunimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Jamiatimizning har bir a'zosi, har qanday mutaxassis, zamon bilan hamqadam har qanday kadr, eng avvalo, o'z ona tilining sadoqatli sohibi bo'lmog'i lozim. Nutq madaniyati tildan bimalol va maqsadga o'ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va xosil qilinadigan bilimlarning jami yig'indisi hisoblanadi.

Ma'lumki, so'zlashuv tili nutq o'stirishning dastlabki bosqichi hisoblanib, u asta-sekin takomillashib boradi. O'quvchilarda iki kishi o'rtasidagi so'zlashuv (muloqot) tushunchasi esa o'qilgan matnlarni og'zaki hikoya qilishda namoyon bo'ladi. So'zlashuvga o'rganish boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha darslar jarayonida amalga oshadi, lekin o'qish darslari yetakchi ahamiyat kasb etishi maqsadli hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilardagi ma'naviy kamolot ona tili va o'qish savodxonligini o'qish orqali mujassamlashadi. Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi o'quvchilar nutqni o'stirishda ta'lim-tarbiya jarayonidagi eng muhim vositalardan biridir.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar bilan o'qish mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida ularda nutq faoliyatining asosiy ko'rinishi bo'lgan ko'nikmalar, matn va kitob ustida ishlash, bog'lanishli nutqni o'stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish nazarda tutiladi. 2-3-sinflarning ona tili va o'qish savodxonligi darslarida to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini o'stirish va takomillashtirish zarur. Bu orqali ularga asarni va uning qismlarini bir necha marta qayta o'qitish bilangina erishiladi. 1-sinfda o'quvchilar gaplarni ongli, ifodali va bo'g'inlab sidirg'a o'qishni o'rganadilar. Olti-etti yoshli bolalarning nutqini takomillashtirish uchun uning nutqidagi kamchiliklarni o'qish darslaridagina emas, balki barcha predmetlar yuzasidan o'tkaziladigan darslarda hamda darsdan va maktabdan tashqari uyushtiriladigan mashg'ulotlar jarayonida ham kuzatib borish zarur.

Bolalar o'qilgan asarlar yuzasidan berilgan savollarga javob berishga o'rganadilar. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida matnlar ustida ishlash o'qituvchi rahbarligida olib boriladi.

2-sinfda o'quvchilarda so'zlarni butunlicha sidirg'asiga o'qish malakasi shakllanadi. Bu jarayonda o'qishning to'g'ri va ifodali bo'lishiga erishiladi, o'quvchilarda o'qish sur'ati tezlashadi. Bu sinfda o'quvchilar matnning ayrim qismlarini, qisqa hikoyalarni ichda (ovojsiz) mustaqil o'qishga o'tadilar.

Matn ustida ishlash murakkablashib boradi, bolalar o'qituvchi rahbarligida asarning asosiy mazmunini aniqlaydilar, qahramonlarning xatti-harakatini ifodalovchi so'z va iboralarni topishga, voqea-hodisalarni so'z bilan tasvirlashga o'rganadilar. Ularda so'z boyligiga talab ortadi. Nutq sofliigi va aniqligiga e'tibor kuchayadi, lug'ati boyiydi va faollashadi, nutq sur'ati oshadi, so'zlarni nutq jarayonida to'g'ri qo'llashga, og'zaki nutqda to'g'ri foydalanishga ta'sir qiladi.

3-sinfda so'zlarni butunlicha sidirg'a o'qish ko'nikmasi to'la shakllanadi. Bu esa o'quvchilari darslarda o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni ongli va ifodali o'qishga qo'yilgan talablarni bajarishga imkoniyatini beradi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'qish mashg'ulotlarini bolalarning matn mazmunini o'zlashtirish ustida mustaqil ishlashga, hikoyadagi voqea-hodisalarning izchilligini belgilashga, o'zaro bog'lanish sabab-natijalarini

aniqlashlariga alohida ahamiyat beriladi. Matnning badiiy xususiyatlarini, tasviriy vositalarini aniqlash ustida ishlash davom ettiriladi.

3-sinf o'quvchilarini o'z nutqlarida maqollardan, hikmatli so'z va iboralarda foydalanishga, so'zlarni to'g'ri tanlashga, gap turlaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatish talab etiladi. O'qishda so'zlarni adabiy til qoidalarga muvofiq talaffuz etishlari talab etiladi hamda o'qituvchi ham adabiy tildan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

4-sinfda o'quvchilari barcha o'tiladigan dars mobaynida so'zlarni bo'g'inlamay sidirg'a o'qishlari, matnni to'g'ri, ongli va ifodali o'qiy olish ko'nikmalari shakllangan bo'lishi lozim. Bu sinfda bo'ginlab o'qishga yo'l qo'ymasligi kerak. Bolalar o'qilgan matn mazmunini mustaqil ravishda qayta hikoya qilishlari, matn yuzasidan sodda reja tuza olishlari, uning asosiy mazmunini ajrata olishlari, o'qilgan matnni to'la qayta hikoyalashlari maqsadli sanaladi. Bu sinfda o'quvchilarda ifodali o'qish va o'zaro nutqiy faoliyat jarayonida adabiy talaffuz me'yorlari shakllanadi. O'quvchilarda nutqiy faollashuv, nutqning grammatik shakllarini to'g'ri qo'llash va to'g'ri talaffuz etish bolalar nutqining ravon, ifodali bo'lishiga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatlarini o'ziga xos taraqqiy etishini hisobga olish, ayniqsa, ularning ruhiy, fiziologik, jismoniy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarga yetarli ahamiyat qilish lozim. Ularga nisbatan e'tiborni kuchaytirish, mehrli va hamisha shirinsuxan bo'lish zarur. Bola shaxsi pedagogik va psixologik nuqtai nazardan juda nozik his-tuyg'ularga boy bo'lib, o'qituvchi ana shu tuyg'ularni orqali bola ruhiyatini ko'tarishi, ta'lim jarayonidagi mavzular, matnlar ana shu jihatni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Masalan "Kiyinish odobi", "Do'st tutmoq haqida" kabi matnlarni o'qish orqali o'quvchilarda bir-birlariga mehr-muhabbat kabi yaxshi fazilatlar paydo bo'ladi. O'quv dasturining o'qish bo'limida bolalarning eshitish uquvlarini tarbiyalash, tez, sekin, qattiq, har xil ohangdagi gaplarni eshitib, idrok etish talab qilinadi. Talaffuzning sofligini ta'minlash dasturdan keng o'rin olgan bo'lib, o'quvchilar nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish ko'zda tutilgan hisoblanadi. O'quvchilarning o'z fikr-taassurotlarini ifodalashlari uchun savol-javobli nutqni egallashlariga ko'proq o'rin beriladi. O'qish savodxonligi darslarida fikrni ta'sirli ifoda etish, o'qish paytidagi nutq, badiiy asarlar asosida ertak aytib berishdagi ohang va hazil mutoyibadagi nutq uyg'unlashishi o'quvchilarga zavq-shavq bag'ishlashi lozim. O'quvchilarni gapirishga o'rgatish hamda nutqqa qaratilgan talablar: ko'rgazmali vosita asosida so'zlashuv, darslar jarayonida ko'rgan, eshitganlarini tartib bilan ifoda etish maqsadli hisoblanadi. Dars davomida nutq o'stirish bilan bolalarning tasavvur va tafakkur qilish faoliyatlari bog'liq holda uzviy rivojlanadi. SHunigdek, o'quvchilarni o'qituvchi rahbarligida tayanch so'zlar yordamida o'z fikrlarini bayon qilish, shunday usullar bilan ular lug'atining ortib borishiga badiiy asarlar orqali nitqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishga erishiladi.

O'quvchilarni dars jarayonida faollikka o'rgatish uchun so'zlarni ma'nosini topish o'yinlari orqali musobaqalar tashkil etish va bunday so'zlardan nutqda o'rinli foydalanish, gap tuzishda esa so'zlar orasidagi bog'lanishga mos turli o'xshatish so'zlarni qo'yish kabi ishlar doimiy ravishda o'tkaziladi. Rasmlarga yoki tasviriy vositalarga qarab gap tuzishni, gapda so'zlarning tartibiga, ularning bir-biriga bog'lanishiga so'zlar o'rnini almashtirilib, gapni qayta tuzib hikoya qilishga izchillikka rioya qilish mashqlarini o'tkazishga e'tibor beriladi. Boshlang'ich sinflarda hikoya, ertaklar matnini so'zlab berishda qahramonlar ovozigacha taqlid qila bilish; rasm va narsalarni taqqoslab tasvirlash, sayr, tomosha, o'yin mehnat haqida hikoya qilish, misollar keltirish, matnda tasvirlangan voqealar haqida xulosalar chiqarish, badiiy matn ustida ishlashga o'rgatish, matnni qismlarga bo'lib, ular mazmuniga mos sarlavhalar topish, ijodiy rasmlar ishlash kabi jarayonlarda bolalar tafakkur qilishga o'rganadilar. O'quvchilarda nutq madaniyatini tarbiyalash uchun og'zaki nutq namunalaridan foydalanish, ularga taqlid qilish, ko'proq yod olishga e'tibor berish mashqlarini dars davomida o'tkazish tavsiya etiladi. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining yod olish qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi dars jarayonida turli xildagi badiiy asarlar: sh'er, hikoya, ertak, maqol, topishmoqlardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Shularni hisobga olib o'quv dasturida yodlash uchun 12-14 she'r na'munalari beriladi. Ular ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'quvchilar berilgan topshiriqlardagi she'rni yoddan aytishda ifodalilikka, nutq odobiga rioya qilish, shoshilmay, yoqimli ovozda o'qish talab etiladi. O'qituvchi nutqi o'quvchilar uchun namuna bo'ladi. Bugungi kunda o'quvchilarning nutq odobi, nutqiy mahorat, notiqlik mahorati maktablar hayotidan keng rin olmog'i lozim. O'qituvchi o'z nutqining o'quvchilarga qanday ta'sir etayotganini kuzatishi, tushunarli va qiziqarli bo'lganini hisobga olishi kerak. Agar dars mobaynida o'quvchilar e'tiborsiz qolsalar, demak, o'qituvchi darsni tashkil qilishda nutqining ta'sir kuchi sezilarli hisoblanmaydi, o'tilayotgan dars mashg'uloti ularga tushunarsiz bo'lib qoladi. U o'z nutqini hamma o'quvchilarning xulq-atvoriga qaratilgan holda darsni boshqarishi, qiziqarli misollar aytishi, o'quvchilar e'tiborini tortib o'rinli topshiriqlar orqali tashkil qilish, qo'lni besabab harakatlantirmasligi, bir kishiga qarab emas, balki sinf jamoasining diqqatini tortgan holda gapirishi, o'qituvchi o'z nutqida murakkab, uzun jumlar yoki notanish, qiyin iboralarni muntazam ishlatasa, uning nutqi orqali o'quvchilar darsga qiziqishni susaytiradi. O'qituvchining mahorati shundari, u o'zining yoqimli nutqi bilan bir butun jamoaga ta'lim-tarbiya beribgina qolmay, balki ularni yuksaklikka intilishga chorlaydi.

O'quvchilar nutqiy kompetensiyasini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. O'qish darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar. O'qish darslari bolalar nutqini boyitishga samarali yordam beradi, ularning nutqini to'g'ri shakllantirishga yozma nutqda gaplarni tuzishni o'rgatadi.

O'qish mashg'ulotlari va u bilan bog'liq holda olib boriladigan kuzatish, sinfdan tashqari mashg'ulotlar ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi. Bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud. She'r, maqolalarni o'qish, o'qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada, predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko'rganlarini hikoya qilish o'quvchilar nutqiy kompetensiyasini o'stirish vositasi sanaladi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida esa o'quvchilar og'zaki va yozma nutqni o'stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Grammatikani o'rganish va o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilar bajaradigan topshiriqlar gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2020. – 301 b.
2. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2009. – 70 b.
3. Qosimova K., S.Fuzailov 2-sinf ona tili darsligi Toshkent Cho'lpon nashriyoti 2018y
4. G'ulomova X., Sh.Yo'ldasheva 4-sinf ona tili darsligi Toshkent o'q.nashriyoti 2020y